

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB Odob-axloq komissiyasining
YIG‘ILISH BAYONI 8

2025-yil 30-aprel

Toshkent shahri

Komissiya raisi:	Boshqaruv Raisi A.Akbarjonov
Komissiya raisi o‘rinbosari:	Risk Bosh direktori S.Ismagilov
Komissiya a‘zolari:	Ichki xavfsizlik departamenti direktori S.Sergiyenko
	Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti direktori A.Orifjonov
	Yuridik departamenti direktori v.v.b. U.Aminova
	Risk menejment departamenti direktori o‘rinbosari D.Xujayev
	Komplayens-nazorat departamenti direktori A.Yoqubjonov
Komissiya kotibi:	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati menejeri Sh.Navruzov

KUN TARTIBI:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlari xizmat (mehnat) faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini o‘rganish yuzasidan o‘tkazilgan tahlil natijalarini ko‘rib chiqish

Komissiya Raisi A.Akbarjonov xizmat safarida bo‘lgani sababli Komissiya Raisi o‘rinbosari S.Ismagilov tomonidan yig‘ilish ochiq deb e‘lon qilindi hamda kun tartibidagi masala bo‘yicha axborot berish uchun so‘z Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari Sh.Ismoilovga berildi.

Sh.Ismoilov komissiya a‘zolariga:

- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 632, 29.01.2025-y.) talablariga binoan bank xodimlari tomonidan taqdim etilgan yillik deklaratsiyalar umumlashtirilgan holda tahlil qilinganida, 2025-yil uchun **3978** nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar taqdim etilganligini;

- 38 nafar, shundan 20 nafari Bosh bank va 18 nafari hududiy tarmoq (BXO va BXM) xodimlari tomonidan turli sabablar (kasallik varaqasi, xizmat safari, mehnat va

o'quv ta'tili hamda shu kabi boshqa holatlar) ga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar taqdim etilmaganligini;

- Bosh bank xodimlarida **63 ta** holatda "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" hamda hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida **45 ta** holatda "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" va **3 ta** holatda "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" aniqlanganligini ma'lum qildi.

Xususan, hududiy tarmoq (BXO va BXM)larda aniqlangan **3 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining bevosita bo'ysinuvida faoliyat ko'rsatib kelayotgan) holatlarining 2 tasida xodim (D.Ashurova, F.Atajanova)lar mehnat qonunchiligi talablariga binoan belgilangan tartibda bola parvarishlash ta'tiliga chiqqanligi va hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi sababli, ular bola parvarishlash ta'tilidan qaytganidan so'ng yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqligi bayon etildi.

Shuningdek, **1 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holati (Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO boshqaruvchi o'rinbosari A.Djoldashbayev va uning turmush o'rtog'i Innovatsiya 2-toifali BXM kichik servis menejeri M.Ismailova) bo'yicha Nizomning 8-bobi (manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari) 21-bandi talablariga binoan o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bo'ysunuvidagi xodimni manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuviga o'tkazish (rotatsiya qilish) yo'li bilan bartaraf etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Bosh bank xodimlarida aniqlangan **63 ta** holatdagi hamda hududiy tarkibiy bo'linma (BXO va BXM) lar xodimlarida aniqlangan **45 ta** holatdagi "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" bo'yicha xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar hamda o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazish lozimligi ta'kidlandi.

Komissiya a'zolari taqdim etilgan ma'lumot hamda bildirilgan takliflarni muhokama qilib,

QAROR QILDI:

1. Hududiy tarmoq (BXO va BXM)larda aniqlangan **3 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" (yaqin qarindoshlar biri ikkinchisining bevosita bo'ysinuvida faoliyat ko'rsatib kelayotgan) holatlarining 2 tasida xodim (D.Ashurova, F.Atajanova)lar mehnat qonunchiligi talablariga binoan belgilangan tartibda bola parvarishlash ta'tiliga chiqqanligi va hozirgi kunda bevosita bank amaliyotlarini bajarmayotganligi sababli, ular bola parvarishlash ta'tilidan qaytganidan so'ng, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalasi o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilishini inobatga olib, ushbu holat Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan nazoratga olinsin.

2. Hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan **1 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holati (Qoraqalpog'iston Respublikasi BXO boshqaruvchi o'rinbosari A.Djoldashbayev va uning turmush o'rtog'i Innovatsiya BXM kichik servis

menejeri M.Ismailova) bo'yicha Nizomning 8-bobi (manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari) 21-bandi talablariga binoan o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bo'ysunuvidagi xodimni manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuviga o'tkazish (rotatsiya qilish) yo'li bilan bartaraf etish yuzasidan Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan zarur ishlar amalga oshirilsin.

3. Bosh bank va hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan jami **108 ta** "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlarini xodimlarning bevosita rahbarlari tomonidan doimiy ravishda nazorat va monitoring qilib borish, profilaktik tushuntirishlar o'tkazish (natijasi bo'yicha bayonnoma rasmiylashtirish) orqali ushbu holatlar "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi"ga aylanmaslik choralari ko'rish yo'li bilan manfaatlar to'qnashuvi oldi olinsin.

4. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan turli sabablar (kasallik varaqasi, xizmat safari, mehnat va o'quv ta'tili hamda shu kabi boshqa holatlar)ga ko'ra manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni taqdim etmagan **38 nafar** (20 nafari Bosh bank va 18 nafari hududiy tarmoqlar) xodimlardan ularning rahbarlari mas'ulligi hamda nazorati ostida deklaratsiyalar to'liq olinishi ta'minlansin.

5. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan **1 ta** "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi" holatlari yuzasidan Odob-axloq komissiyasining manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish bo'yicha ish beruvchiga kiritiladigan takliflari asosida belgilab beriladigan topshiriq (masalan, rotatsiya qilish va boshqa chora)lar ijrosi ta'minlansin.

6. Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti tomonidan Bosh bank va hududiy tarmoq (BXO va BXM)lar xodimlarida aniqlangan **108 ta** "Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi" holatlari bo'yicha har bir xodim bilan o'tkazilgan profilaktik tushuntirishlar yuzasidan rasmiylashtirilgan bayonnomalarni Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga taqdim etilishi ta'minlansin.

7. Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari va hududiy tarmoqlari rahbarlari tomonidan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymagan holda mehnat faoliyatini yuritish, bunda rahbar sifatida shaxsiy namuna ko'rsatish hamda qo'l ostidagi xodimlarning ushbu yo'nalishdagi qonunchilik va ichki qoidalar talablariga qat'iy rioya qilishlari ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

Komissiya Raisi o'rinbosari:

Risk bosh direktori


S.Ismagilov

Komissiya a'zolari:

Ichki xavfsizlik departamenti direktori

S.Sergienko

Komplayens-nazorat departamenti
direktori




A.Yoqubjonov

Risk menejment departamenti direktori
o'rinbosari



D.Xujaev

Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish
departamenti direktori



A.Orifjonov


Yuridik departament direktori v.v.b.



U.Aminova

Ma'ruzachi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati
rahbari



Sh.Ismoilov

Komissiya kotibi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati
menejeri



Sh.Navruzov